



SOTSIOLGIYANING BUGUNGI KUNDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Zebiniso Ulug‘bekova

Samarqand davlat universiteti,
Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar
fakulteti, 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy hayotining barcha sohalarida ulkan tarixiy demokratik islohatlar ro'y bermoqda. Sotsiologiya fani amaliy sotsiologik tadqiqotlar yordamida jamoatchilk fikriga asoslanib, jamiyatning o'zini boshqarish va anglashida muhim va qudratli vosita bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada sotsiologiya fanining asosiy ijtimoiy vazifalari haqida fikrlar bayonetilgan.

Kalit so'zlar: sotsiologiya, ijtimoy-iqtisodiy, qonuniyat, bilish, ijtimoiy ehtiyojlar.

Sotsiologiya fani bugungi kunda muxim va tezkor rivojlanish bosqichida turibdi. Mazkur fanning turli muommalari faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar, iqtisodchilar va keng jamoatchilik tomonidan atroficha organila boshladi. Bunday qiziqish mustaqillikni mustaxkamlashning xozirgi bosqichida turli ijtimoiy siyosiy masalalarni yangicha baholash yuzasidan sotsiologiya fani imkoniyatlariga bolgan ijtimoiy ehtiyojlarning keskin ortishi bilan izoxlanadi. Sotsiologiya atamasi “sotsio” va “logos” so'zlarining uyg'unlashuvidan iborat bo'lib, mazmunan jamiyatda yuz berayotgan hamda yuz berishi mumkin bo'lgan jarayon, shakllangan va shakllanayotgan jamoalarni o'rganish, aholining turli tabaqalari hayoti, turmush tarzidan rozilik kayfiyati, ya'ni ijobiy o'zgartirish degan mazmunni ifoda etadi. Bu vazifalar inson omilini, odamlarning fikr-qarashlari, o'y-mulohazalari, maqsad va intilishlarini, kimlar bilan birikkan va uyushgan holda ish tutishini har taraflama o'rganish orqali bajariladi.

Davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonni bunyod etish uchun “Barchamiz birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilishimiz lozim”, deb ta'kidlagani ham odamlarning yakdil intilishi taraqqiyot strategiyamiz va inson qadrini oshirish uchun qilayotgan barcha rejalarimizning harakatlantiruvchi kuchi ekanini tasdiqlaydi. Sotsiologiya faniga ehtiyoj mamlakatning taraqqiyot g'oyasi nechog'liq salmoqli va jamiyatning rivojlanganlik darjasini qancha yuqori bo'lsa, shuncha ortib boraveradi. Amerikalik mashhur iqtisodchi va sotsiolog A. Smit odamlarni o'zaro birlashtirish uchun ularning keng tafakkur yuritish salohiyatini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Jamiyat taraqqiyotida birlashishga intilish mazmunan bir xil bo'limgan. Yaqin va uzoq tarix guvohlik beradiki, jamoaviy fikrni chalg'itish va soxta va'dalar berish hisobiga odamlarni birlashtirishga erishgan johil “daho”lar xalqlar va insoniyat boshiga qanchadanqancha kulfat



yog'dirgan. Shu bois, birlashish g'oyasi nechog'liq ezgu va umuminsoniy qadriyatlar bilan sug'orilgani juda muhim.

Jamiyatda moddiy farovonlik va ma'naviy-axloqiy tamoyillar ustuvorligi ta'minlangan holdagini odamlarning o'zaro totuvligi hamda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Qashshoqlik, axloqsizlik hukmron bo'lgan jamoa va jamiyatlarda totuvlikka o'rinn bo'lmaydi. Yangi O'zbekistonda bir tomondan, kambag'allikni qisqartirish, ikkinchi tomondan esa ma'naviy-intellektual yuksalishga ustuvor ahamiyat berilayotganining asosida ham, eng avvalo, ezgu va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib ish tutilayotgani, Vatanimizda barqaror milliy totuvlikni ta'minlash, inson qadrini oshirish, odamlarni rozi qilish va barqaror rivojlanishga erishish g'oyasi mujassam. Yurtimizdagi islohotlar negizida nafaqat iqtisodiy natijalarni qo'lga kiritish, balki odamlarni birlashtirib, ularni o'zaro totuv qilish orqali farovon turmush darajasiga erishish maqsadi turibdi. Odamlar o'zaro birlashuvi uchun esa, avvalo, ularni bir-biriga bog'lash davlatimizning o'ziga xos noyob boshqaruv uslubi va ustuvor siyosatiga aylandi. Tan olish kerakki, avvalgi davrlarda odamlarning o'zaro birlashuviga davlatga qarshi yashirin xavf sifatida qaralgan. Shuning uchun ham insonlarning o'zaro uyushib ketishiga yo'l berilmagan. Natijada davlat idoralari insonlarning tabiiy yaqinlashuv ehtiyoji asosidagi birlashuvidan fazilat emas, illat, kamchilik izlash bilan mashg'ul bo'lgan. Endi esa mamlakatimizda ijtimoiy holat tubdan o'zgardi. Prezidentimizning o'zi "birlashish — bog'lanish — yuksalish" formulasini mamlakatimizni jadal taraqqiy ettirish strategiyasining asosiy tamoyili sifatida hayotga joriy etmoqda.

Sotsiologiya fani falsafadan alohida fan sifatida rasman ajralib chiqqaniga ikki asrga yaqinlashmoqda. Agar ijtimoiy fanlar tarkibidagi falsafa fani davlat va jamiyat taraqqiyotining umumiyligi rivojlanish qonuniyatları, hayot va faoliyatning asosiy kategoriyalarini nazariy tadqiq etsa, tarix fani davlat, jamiyat va shaxsning kechagi kuniga doir iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy tanazzuli va taraqqiyot xususiyatlarini o'rganadi. Shuningdek, pedagogika fani inson va jamiyat ta'lim-tarbiysi bilan shug'ullansa, psixologiya inson va jamiyatni turli inqiroziy holatlardan xalos etish, inson tabiatining tashqi nazardan yashirin jihatlari, ong va ong osti mexanizmlarini o'rganadi. Sotsiologiya fani esa boshqa ijtimoiy fanlar kabi voqelikni shu fan doirasidagina emas, balki odamlar hayoti va faoliyatini har tomonlama, to'laligicha o'rganadi. Sotsiologiya fani inson, jamiyat va davlatning nafaqat kechagi kuni, balki buguni va ertasini ham butun boricha, tizimli ravishda tadqiq etadi va uni qanday qilib yaxshilash, ijobjiy o'zgartirish, barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy isbotlab, jamoatchilik e'tiboriga aniq tavsiya va



takliflarni chiqaradi. Shu tariqa sotsiologiya hayotda yuz bergan faktlarning kelib chiqishsabablari, oqibatlarini puxta asoslab, jamiyatga tahdid solayotgan inqiroziy holatlarni bartaraf etish hamda taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijobiy tendensiyalarni faol qo'llabquvvatlash imkoniyatlarini chuqur nazariy asoslab, uni faqat bir yoqlama fikr sifatidaemas, balki jamoatchilik fikri tarzida jamiyat miqyosida keng yoyish yo'llidan boradi. Prezidentimiz tashabbusi bilan odamlarni rozi qilishga qaratilgan islohotlar o'z mohiyatiga ko'ra, sotsiologiya fanining amaliy bazasini kuchaytirmoqda. Xususan, aholining turli tabaqasi turmush tarzi, maqsad va qiziqishlarini xonadonma-xonodon yurib o'rganish, xatlovlar o'tkazish, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" ro'yxatlariga ehtiyojmand oilalar va fuqarolarni kiritish hamda bu ro'yxatdan chiqarish mexanizmi, yoshlar balansini shakllantirish, iqtidorli yoshlar uchun qulay rivojlanish imkoniyatini yaratish, nogironligi bo'lgan fuqarolarni doimiy ish, ta'lim va kasb olish bilan band etish, "1+1" ("Bir tadbirkorga bir ishsiz yosh"), "1+10" ("Bir nuroniy — o'n yoshga murabbiy") tartibi asosida odamlarni bir-biriga bog'lab, ularni faollashtirish, vaziyatni tubdan yaxshilash siyosati shular jumlasidandir.

Ayniqsa, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki bergan katta islohot davlat xizmati vertikal tizimini aholining eng quyi bo'g'iniga ham etkazish amaliyoti bo'ldi. Prezidentimizning 2022 - yil 19 - yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan har bir mahallada hokim yordamchisi va yoshlar bilan ishslash uchun belgilangan yoshlar vakili lavozimlarining joriy etilishi joylarda odamlarni rozi qilish va ayni vaqtda amaliy sotsiologiyaning har kuni, har soatda yuritib borilishini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari - T.: 1997 yil.
2. Mukhitdinova, O., Alyavi, B. A., Ubaydullaeva, Z. Z., Uzokov, J. K., Mukhamedova, M. G., Rakhimova, D. A., ... & Orziev, D. Z. (2022). Changes of blood D-dimer level after COVID-19 in patients with coronary heart disease. European Heart Journal: Acute Cardiovascular Care, 11(Supplement_1), zuac041-136.
3. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.